



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI

Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunining 4 va 9-moddalariga muvofiq geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 27-yanvardagi yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-fevraldagi ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 27-yanvardagi yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2025-yil 27-fevraldagi ekspertiza xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinadi.
2. Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risidagi taklif ilovaga muvofiq maqullansin.
3. Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (T.Mahmudov), O'zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (Sh.Yuldashev), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Abdiyev), davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Xatamov), Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan aholi punkti nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.
4. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (R.Mamatov), Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) o'zgartirilgan aholi punktiga aholini ro'yxatga qo'yish hamda tegishli yo'l belgilarini o'zgartirish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.
5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Xatamov) Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) bilan birgalikda o'zgartirilgan aholi punktiga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko'rsatkich belgilarini o'rnatilishini ta'minlasin.
6. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Ixtiyarov), viloyat hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" MChJ (N.Norbekov) mazkur qarorni "Zarafshon", "Самаркандский вестник", "Овози Самарканд" gazetalarida chop etilishini hamda Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasiga va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga o'rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta'minlasin.
7. Viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punkti nomini 10 kun muddatda davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko'rsin.
8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiya (Sh.Djurakulov) va viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Sh. NEGMATOV
2025-yil 20-mart VII-9-38-7-0-K/25

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 20-martdagi VII-9-38-7-0-K/25-sonli qaroriga ILOVA

Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

T/r	Geografik obyektning joylashgan o'ri	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning o'zgarayotgan nomi	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	Oqdaryo tumani	Turon	Arpaariq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq



ENDI ULAR O'ZBEKISTON FUQAROSI

Davlatimiz rahbarining shu yil 26-martda qabul qilingan farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berilgan shaxslar qatorida samarqandlik 7 nafar yurtdoshimiz ham bor.

Ulardan biri Komiljon Hasanov Tojikistonning Dushanbe shahrida tug'ilib o'sgan. Taqdir taqozosi bilan 1992-yilda O'zbekistonga ko'chib kelgan va shu yerda hayot kechirmoqda.

– Harbiy xizmatdan so'ng Samarqandga kelib, shu yerda hayotimni davom ettirdim, oila

qurdim, bola-chaqali bo'ldim, – deydi Komiljon Hasanov. – O'zbekistonda yashasam ham uning fuqarosi emasligim armonim edi. Bu xuddi o'z uyingda begona bo'lib yashashga o'xshaydi. O'tgan yil davomida Tojikistondagi yaqinlarimdan ayrildim, ammo ularning ma'rakalarida borib qatnasholmadim. Yaxshi kunlarda ham yaqinlarim yonida bo'lolmadim. Xudoga shukr, mana endi O'zbekiston fuqarosi, shu yurt kishisi sifatida barcha huquqlarga ega bo'ldim. Buning uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman.

Mavjuda Qudratova ham 1988-yilda Tojikistonda tug'ilgan bo'lsa-da, 1992-yilda

O'zbekistonga ko'chib kelib, shu yerda hayot kechirmoqda. Lekin shu paytgacha unda ham O'zbekiston fuqaroligi yo'q edi.

– Prezidentimizning oqilona siyosati va bag'rikeng tufayli bugun O'zbekiston fuqaroligini olganimdan juda xursandman, – deydi M.Qudratova. – Endi men ham shu yurt fuqarosi sifatida Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shaman.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev va viloyat IIB boshlig'i Rahmat Mamatov O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan yurtdoshlarimizga ID kartalarni tantanali suratda topshirib, ularni tabrikladi.



INDALLOSINI AYTGANDA...

Ismoil SAIFNAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor:

– Afsuski, to'y va aza dabdabasiga berilish, soxta obro' va hasham ishtiyoqi, vaqtni zoye o'tkazish, pora berish, ilm ahliga nopisandlik bilan qarash illati hamon oramizdan ko'tarilmayapti.

IBN SINO MEROSINI BILASIZMI?

Ko'rgazma

Samarqand davlat tibbiyot universitetida dorivor o'simliklarni yetishtirish va chuqur qayta ishlashda ilm-fan va ishlab chiqarish korxonalarining kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga bag'ishlangan "Ibn sino merosi" ko'rgazmasi o'tkazildi.

Viloyat hokimligi va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan uchinchi bor o'tkazilayotgan tadbirda Samarqanddagi dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi o'rmon va fermer xo'jaliklari, korxonalar hamda dorivor o'simliklar bilan bemorlarni davolovchi xususiy tibbiy markazlar vakillari ishtirok etdi.

– Bugungi kunda viloyatimizdagi 6 ta davlat o'rmon xo'jaligi, 5 ta fermer xo'jaligida dorivor o'simliklar yetishtirilayotgan bo'lsa, 8 ta korxonada qayta ishlash bilan shug'ullanmoqda, – deydi viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi Nozir Ibragimov. – Shuningdek, ushbu yo'nalishda bir nechta startap loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda, dorivor o'simliklar bilan davolovchi xususiy shifoxona faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin mavjud imkoniyat va resurslarni hisobga olganimizda bu juda kam. Mutaxassislar mamlakatimizda 577 turdagi dorivor o'simlik turini aniqlagan. Viloyatimizdagi o'rmon xo'jaliklarida esa 17 turdagi dorivor o'simliklar plantatsiyalari mavjud, xolos. Janubiy Koreyada dori vositalarining 25 foizi tabiiy dorivor giyohlardan ishlab chiqariladi. Bu tabiiy dorivor giyohlarga talab yuqoriligidan dalolat beradi. Biz ham farmatsevtika sanoatimizda dorivor o'simliklar yetishtirish va ulardan dori vositalari tayyor-



lashga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Mazkur ko'rgazma ham shu maqsadga qaratilgan bo'lib, viloyatimizdagi 30 dan ortiq farmatsevtika korxonasi va dorivor o'simliklar yetishtiruvchi xo'jaliklar bilan kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Ko'rgazmada dorivor o'simliklar, ularni qayta ishlash natijasida olinayotgan mahsulotlar namoyish etildi, taqdimotlar o'tkazildi.

– Xo'jaligimizda 135 gektar yerda kovrak, 30 gektarda na'matak, 50 gektarda qizil va qora do'lana parvarishlanmoqda, – deydi Qo'shrabot tumanidagi Fozilmon ixtisoslashtirilgan davlat o'rmon xo'jaligi bosh o'rmonchisi Sayfidin Qo'chqorov. – Bundan tashqari, achchiq bodom, kiyik o'ti, dala choy, isiriq kabi dorivor o'simliklar yetishtiriladi. Hozirda achchiq bodomni qayta ishlash yog'ini o'laytmiz va farmatsevtika korxonalariga yetkazib beramiz. Kelgusida bu boradagi faoliyatimizni kengaytirish bo'yicha yangi loyihalar ustida ishlayapmiz.

Ko'rgazmada Samarqand davlat tibbiyot universiteti olimlarining dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha ilmiy ishlanmalari hamda startap loyihalari namoyish etildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV, surat.



Ichki turizm imkoniyatlari namoyish etildi

Samarqand shahridagi Registon ansamblida ichki turizmni rivojlantirish, shu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida "O'zbekiston bo'yab sayohat qil!" dasturi doirasida «Ichki turizm yarmarkasi» o'tkazildi.

Viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov yurtimizda joriy yilgi turizm mavsumi boshlangani, yarmarka davomida turizm sohasida hamkorlik o'rnatish va yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishish, shuningdek, bu yil Samarqandga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonini 5 million, mahalliy sayyohlar sonini esa 7 million nafarga yetkazish rejalashtirilganini ta'kidladi.

Shundan so'ng respublikamizning turli hududlaridan kelgan sayyohlik firmalari, turizm sohasida faoliyat yurituvchi turoperatorlar, turagentlar, joylashtirish vositalari (mehmonxona, hostel, mehmon uyi) va killari ichki turizm bo'yicha imkoniyatlarini namoyish etdi.

– Keyingi yillarda turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va tadbirkorlarga yaratilayotgan qulaylik sohada yangi loyihalarga qo'l urishga undamoqda, – deydi "SITORA tour" turistik firmasi turoperator Nigina Oltiboyeva. – Kompaniyamiz



dastlab 2017-yilda respublika bo'yab sayohatlar tashkil etgan bo'lsa, endi 10 ga yaqin xorij mamlakatlariga ham sayohatlarni yo'lga qo'ydik. Chet elda yurtimizning sayyohlik salohiyatini namoyish qilib, Turkiya, Tailand, Hindiston, Malayziya, Isroil davlatlari bilan hamkorlik qilishga erishdik. Bugungi yarmarkada yurtimizdagi yirik sayyohlik firmalari bilan xorijiy turistik korxonalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida kelishib oldik.

Yarmarka doirasida samarqandlik hunarmandlar tomonidan tayyorlangan milliy mahsulotlar ko'rgazmasi, milliy liboslar taqdimoti, «Chavqi» folklor-etnografik jamoasining chiqishlari namoyish etildi va faol ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan tashakkurnoma, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

RAMAZON hayiti

ezgulik va birdamlik bayrami

Yaratganga beadam shukronalar bo'lsin, Alloh nazar qilgan yurtimizda bu yilgi Ramazon oyi milliy an'ana va qadriyatlariga mos tarzda, xalqimizga xos bag'rikenglik, mehr-oqibat fazilatlarini to'la namoyon bo'lgan, tinch-osoyshta holda o'tmoqda.

Ushbu muborak oy boshlanishi arafasida qabul qilingan Prezidentimiz qarorida belgilanganidek, oy davomida ehtiyojmandlar hamda ilm-ma'rifati yo'lida izlanayotgan yoshlarga yordam berish, oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish, hududlarni obodonlashtirish va ko'chat ekish ishlariga alohida e'tibor qaratildi.

286 jome' masjidida taroveh namozlari o'qildi va ularning 198 tasida Qur'on xatm qilindi. Bu maskanlarda ibodat amallarini to'la-to'kis ado etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Saxovat va mehr-muruvvat tadbirlari uyushqoqlik bilan olib borildi. Imom-xatiblar boshchiligidagi homiylikni jalb qilgan holda 5400 dan ortiq kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga 3 milliard 250 million so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi. Kekslar va nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar va turli millat vakillari taklif etilgan holda 200 dan ortiq xayriya iftorlik marosimlari o'tkazildi.

25-mart kuni davlatimiz rahbari ishtirokida butun mamlakatimiz bo'yab o'tkazilgan iftorlik marosimi Samarqandda ham yuqori saviyada tashkil etilib, 16 tuman va shaharlarimizda ehsos dasturxonlari yoziildi.

Erta - 30-mart kuni butun musulmon olamida bo'lgani kabi yurtimizda ham Ramazon hayiti keng nishonlanadi.

Davlatimiz rahbarining ushbu bayramni munosib nishonlash haqidagi qarorida mahalliy hokimliklar va boshqa mu'tasaddi idoralar, tashkilotlarga Ramazon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Viloyatimizda Ramazon hayitini yuqori saviyada va tartibli tashkil etishga qizg'in hozirlik ko'rilmog'da.

Bayramni yuqori saviyada,



tartibli va xavfsizlik ta'minlangan holda o'tkazish maqsadida mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qilish organlari va mahalla raislari bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Erta 285 ta masjidda hayit namozi o'qilishi ko'zda tutilgan. Ayni paytda bu masjidlarining holati tegishli tashkilotlar tomonidan o'rganilib, hayit namoziga keluvchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratilmoqda, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston musulmonlari idorasining tegishli ko'rsatmalari asosida hayit namozi o'qiladigan masjidlar imom-xatiblariga zarur tavsiyalar berildi. Namozdan keyin ibodat ahli uchun qisqa ma'ruzalar, duolar va nasihatlar o'tkazildi.

Ramazon hayiti - ezgulik va birdamlik bayrami. Bu kunlarda musulmonlar bir-birini ziyorat qilib, xonadoniga hayit tabriklari bilan borishi an'anaga aylangan. Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar holidan xabar olish, ularga yaxshi so'zlar aytish va hadyalar berish savobli amallar hisoblanadi. O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi tomonidan ham bayram kunlarida imkoniyat cheklanganlar, qariyalar va bemorlarni yo'qlash uchun hayit tabriklari tayyorlab qo'yildi.

Alloh taolo bu muborak kunlarni yurtimizga fayzu baraka, osoyshtalik va farovonlik olib keluvchi bayramlardan qilsin! Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

Ahmadxon ALIMOV,
viloyat bosh imom-xatibi.

Samarqand tumanidagi 74 ta mahallada qariyb 52 ming aholi xonadoni tasarrufida 3130 gektar tomorqa ekin maydoni mavjud. Ushbu tomorqa maydonlaridan 2-3 marta hosil olish uchun tomorqada almashlab ekishni tizimli tashkil etish bo'yicha mahallabay dasturlar ishlab chiqish orqali 2478 gektar tomorqa maydonlariga ertaki, takroriy va to'qsonbosti usulida mahsulot yetishtirish rejaları ishlab chiqilgan. Tumanda yerga bo'lgan munosabat, tomorqachilik tajribasi boshqa hududlar uchun o'rnak. Shu bois yaqinda tomorqachilikni rivojlantirish va yerdan daromad olishni ko'paytirishga bag'ishlangan respublika seminari Samarqand tumanida o'tkazilgani bejiz emas.

Tumanimizdagi aholi tomorqalarida ekinlarni almashlab ekish orqali 2024-yilda 2478 gektar yerda ertagi, 2636 gektarda takroriy hamda 3005 gektar to'qsonbosti usulida ekinlar ekildi, - deydi mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i Ikrom Xuseynov. - Bu o'tgan yilga nisbatan 6,8 foizga ko'p. Aholi tomorqalaridan foydalanishni yanada yaxshilash maqsadida bu yil 52 mahalla "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashtiriladi. Jumladan, 25 tasi sabzavotchilikka, 6 tasi kartoshkachilikka, 18 tasi meva-bog'dorchilikka, 3 tasi chorvachilikka ixtisoslashtirildi. 27,3 mingdan ortiq aholi tomorqada o'zini o'zi band qilish orqali ish bilan ta'minlanadi.

Tumanda meva-sabzavot ko'p yetishtiriladigan mahallalarda aholi tomorqalariga kompleks xizmat ko'rsatishni tashkil etish uchun har bir sektorda bittadan tomorqa xizmati mas'uliyati cheklangan jamiyatlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo'lgan jarayonni zanjir (kooperatsiya) usulida qamrab oluvchi yangi tizim joriy qilinib, aholi tomorqalari lider tadbirkorlarga birlashtirildi. Ular tomorqachilarga yerni tayyorlash, sifatlari urug' bilan ta'minlashdan tortib, mahsulotni xarid qilishgacha bo'lgan jarayonda yordam beradi. Tomorqachi esa yetishtirgan mahsulotni sotish haqida o'ylamay, faqat mehnat qilish, yuqori hosil olish va ekinlarga ishlov berish bilan shug'ullanadi.

Natijada dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, yil yakuni bilan aholi tomorqalarida 139 ming tonnadandan ortiq mahsulot yetishtirildi.

Prezidentimizning tegishli qarorlariga asosan, 1645 nafar fuqaroga ijara huquqi asosida dehqon xo'jaliklari tashkil qilish uchun 484 gektar yer

Tomorqadan 100 MILLION so'm



daromad olayotganlar bor

maydoni ajratildi. Yoshlar bandligini ta'minlash va daromadini oshirish maqsadida o'tgan yili 1642 nafar fuqaroga ijara huquqi asosida 485 gektar yer maydoni auktsion orqali yoshlarga ajratib berildi.

Jarqishloq mahallasi ko'katchilikka ixtisoslashgan, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Adham Eshmatov. - 280 xonadon ko'katchilik, 181 xonadon chorvachilik, 30 xonadon bog'dorchilik, 21 xonadon tikuvchilik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanadi. 480 ta xonadon tasarrufida 40 gektar tomorqa maydoni bor va xonadonlarning 40 tasida issiqxonalar tashkil etilgan. Tomorqa xizmati tomonidan 859 million so'm kredit ajratildi va 82 nafar aholi bandligi ta'minlandi. Boshqa manbalar hisobidan ham ehtiyoj bor fuqarolarga kredit mablag'lari ajratildi. Aholi uch-to'rt marotaba ekin ekish orqali tomorqadan yil davomida o'rta 70-80 million so'm daromad qiladi.

Mahalladagi issiqxonalarda asosan rediska, ko'kat, ko'k piyoz, kartoshka, pomidor, bodring yetishtirilarkan. Bu esa yil davomida issiqxonalar bo'sh qolmasdan, oilaga doimiy daromad kelishiga xizmat qiladi.

35 yildan buyon dehqonchilik qilaman, 10 yil oldin 8 sotix tomorqamda issiqxona tashkil etdim, - deydi Mardon Tohirov. - Oilada 8 kishimiz, barchamiz shu yerda ishlaymiz. O'tgan yili 10 million so'm kredit olib, issiqxona plyonkasini yangiladik. Har yili oktabr oyida yerni tayyorlab, rediska ekamiz va yangi yil bayramigacha hosilini sotib, yanvarda yana rediska ekamiz. So'ngra ikki marta ko'kat ekiladi. Ko'katni ham shartnoma asosida uydan o'zlar olib ketishadi. Oilaviy ishlab, issiqxonadan yiliga 100 million so'm daromad, shundan 70 million so'm atrofida sof foyda olamiz. Bundan tashqari, chorvamiz bor, bu ham oilaga daromad.

Mahalla raisi Qobil Nasriyevning aytishicha, bu mahallada bekor odamning o'zi yo'q, erkaklar tomorqadan tashqari, ustachilik, payvandchilik, duradgorlik, bilan shug'ullanadi. Ayollar kashtachilik,

tikuvchilik, qizlar pishiriq tayyorlashni o'rganadi. Bir necha yil oldin xorijga ishga ketishga qiziqish yuqori bo'lgan bo'lsa, hozir o'zini o'zi band qilish, tomorqachilarga imtiyozli kredit berilishi, uch tomonlama shartnoma tuzilishi natijasida chetga ishga ketuvchilar soni sezilarli kamaygan.

Sentabrda kuz boshlanishi bilan piyoz, rediska, ko'kat ekib, yangi yil bayramigacha hosilni yig'ib olamiz, - deydi tomorqachi Odil Xolboyev. - Yozda plyonkani olib tashlab, ekin ekamiz. Tomorqachilarga ko'mak bo'lishi uchun "O'rta shiq agro" korxonasi bilan shartnoma tuzilgan. "Agromir" korxonasi mahsulotni xarid qiladi. Oddiy aytganda, dehqon yetishtirgan mahsulot xaridorsiz qolmaydi. 8 sotix issiqxonada ikki martadan rediska va ko'katlar, keyin pomidor, bodring hosilidan 70-80 million so'm daromad olamiz. Lekin doimiy ravishda dam oldirmasdan ekin ekaverish ham hosilni pasaytiradi. Shuning uchun odatiy qo'rada boqilgan emas, balki tog'da yurgan qo'yni qiyidan keltirib, issiqxonaga solamiz. Bu hosildorlikni oshirishga va yerning holatini tiklashga yordam beradi, begona o't chiqishining oldini oladi.

Shu mahallada yashovchi Jamol Hotamov 35 yildan buyon 3,5 sotix maydonda gul, pomidor, baqlajon va boshqa ko'chatlar yetishtirish bilan shug'ullanadi. Avgustda ekilgan gul ko'chatlari may oyida sotishga tayyor bo'ladi. Shu kichik maydondan 40 million so'mdan ortiq daromad qiladi.

Ma'lumot o'rinda, joriy yilda mahallada "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagi fuqarolar bilan manzilli ishlash orqali 35 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etish rejalashtirilgan. Buning natijasida 43 nafar fuqaroga ishga joylashtirildi, 13 nafar fuqaroga monomarkazda o'qitildi. 45 nafar fuqaroga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi asosida 216 million so'm kredit ajratish, 11 oilani kambag'allikdan chiqarish, 10 nafar yoshni kasb-hunarga yo'naltirish rejalashtirilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, joriy yilning 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari soni 11 186 tani tashkil etmoqda.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Urgut (13,7 foiz), Payariq (12,3 foiz) va Bulung'ur (9,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Deputat minbari



Umakayda birlamchi tibbiyot muassasasi tashkil etiladi

Deputat aholi va hukumat o'rtasida ko'prik bo'lishi uchun doimiy ravishda o'z saylovchilari bilan uchrashishi, ularning muammolari va fikrlarini tinglab borishi lozim. Shu o'rinda aytish joizki, bugungi saylovchilar ilgari saylovchilardan keskin farq qiladi. Ularni qiyayotgan masala bo'yicha noaniq va dalar berish, "davlat dasturiga kiritilgan", "hal etiladi", kabi mavhum gaplar bilan ishontirishning imkoni yo'q va bu noto'g'ri yo'l hamdir.

O'zim saylangan 41-Mevali saylov okrugi aholi bilan uchrashganda, ularning muammolarini tinglash barobarida taklif, fikr-mulohazalarini ham eshitib kelmoqdami. 2025-yilda Past Darg'omda yo'llar ta'mirlanishi, avtobekatlar qurilishi, aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, shuningdek, boshqa qator loyihalarga amalga oshirilishi belgilangan. Uchrashuvlarda dasturlarga kiritilgan loyihalar bilan saylovchilarni tanishtirib boramiz, yaqin orada shu manzilda amalga oshirilishi kerak bo'lgan o'zgarishlarga to'xtalib o'tamiz. Bu mazkur loyihalar amalga oshirilishida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tumanda amalga oshirilayotgan har bir loyiha muhim, ammo ko'proq avtomobil yo'llari ta'mirlanishi hamda yo'l belgilari o'rnatilishi ijrosiga ko'proq e'tibor qaratishga harakat qilyapmiz. Ayniqsa, maktablar joylashgan hududlarda yo'llar xavfsiz bo'lishi lozim.

Elbek mahallasidagi saylovchilar bilan uchrashuvda aholi hududda qishloq vrachlik punkti yo'qligi, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganligini aytdi.

Bu kabi masalalar hududda boshqa muammolarga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, toza ichimlik suvi ta'minoti yaxshi emasligi tufayli mahallada bolalarning turli yuqumli kasalliklarga chalinayotgani ma'lum bo'lmoqda. Shuning uchun sog'liqni saqlash boshqarmasiga hududda aholiga birlamchi tibbiy



xizmat ko'rsatuvchi muassasa tashkil etish bo'yicha deputatlik so'rovi jo'natdim. Boshqarma tomonidan tezkorlik bilan javob berildi. Elbek mahallasiga qarashli Umakay qishlog'ida fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun birlamchi tibbiy sanitariya muassasasi tuzish bo'yicha ishchi guruh tuzilgani va hozirgi kunda bu masalani o'rganish ishlari olib borilayotgani ma'lum qilindi.

Afsuski, barcha idoralar ham deputat so'roviga aniq javob bermasligi masalani qiyinlashtiradi. Misol uchun, suv ta'minoti idorasiga yo'llangan so'rov bo'yicha berilgan javobda bu hududda suv ta'minoti ancha payt muammoligicha qoladi, degan xulosa mavjud. Xususan, tashkilot ushbu masala 2026-2030-yillar davlat dasturiga kiritilishi yuzasidan taklif beriladi, degan xolos.

Inobat BOBOQULOVA,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Камбағаллигидан орияти устун қизалоқ

Иринага нега шу пайтгача уй ажратилмади?



кейин уйни сотишга, кредитдан йигилиб қолган қарзларимизни тўлашга мажбур бўлдик. Яъни, 2021 йилдан бери шу тарихда ижарама-ижара сарсонмиз. Турмуш ўртоғим қийналдим, билмадим, бизни ташлаб кетди. Ууч нафар фарзандим бор.

Хозир қандай тирикчилик қиялмасиз, деган саволимга Ирина "ҳаракат қиялман", дейди. Айтишча, одамларнинг уйлари тозалашга чиқади, баклашга теради, хуллас, қўлидан келадиган ишдан қочмайди. Муҳими, болажонлари учун уйига нимадир олиб келса бўлгани. Ижара уйини кўздан кечиришимиз, айтишча зўрға излаб, сал арзонроқ шу уйни топиди.

Қизиқ, 2021 йилдан бери сарсону саргардон бу оилага нахотки ҳеч ким ёрдам бера олмаётган бўлса?! Ирнининг айтишича, маҳалла томонидан унга ёрдам кўрсатилиб, ўртанча фарзанди боғчага бепул борилиши таъмин-

ланибди. Аммо 11 ойлик қақалоғи учун мана, 3 ойдири, бола пули олмаётган экан. Қизиқ, бола пули Ирина кабиларга берилмаса, кимларга берилмаётган экан?

Бир неча бор шаҳар ҳокимиятига мурожаат қилдим, аммо бефойда, - дея сўзлатди давом эттиради Ирина. - Уларнинг айтишича, реестрда ёрдам олганлар сафиди эканман. Яъни, ўша Қорасувда олинган уйнинг бошланғич тўлови ҳақида гап кетаяпти. Лекин биз бу уйни олмадик, сотиб, пулини ҳам еганимиз йўқ, аксинча, унинг тўловларига сарфладик-ку. Меҳрибонлик уйи тарбияланувчиларига уй ажратилиши керакмасми?

Албатта, ажратилиши керак. Вазирлар Маҳкамасининг "Етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорига қўра, етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларнинг уй-жойга муҳтожлиги "Ижтимоий ҳимоя ягона реестри" ахборот тизими орқали аниқланади. Бизнингча, айнан шу тизимда Ирина Варламовага ёрдам кўрсатилгани белгиланган. Лекин бу хатоликни тузатишнинг иложи йўқми?

Яна бир гап. Рамазон кунларида саховат қилишга шошилган ҳамшаҳарларимиз бор. Уларга Ирнининг манзилли бериш имконимиз бор. Энг катта савоб етимга ажратилган ёрдам эмасми аслида.

Гулрух МҶМИНОВА,
"Зарафшон" мухбири.

Бир неча йилдан бери уйсиз, уч фарзанди билан сарсон юрган Ирина Варламованинг ҳаётини видеолавларда кўрсатиш мақсадида тасвирга тушириш ишларини бошлашимизда ҳамаси ўн ёшли қизчанинг камерага тушмасликка интилаётганини кузатдим. Мени бир четга имлаб, кўнглидагини айтди: "Мени туширманг, синфдошларим кўриб қолса, уяламан..."

Бўғзимга нимадир тикилди. Қўзлари мўлтираб қараб турган шу қизалоқнинг ҳаққини талаб қилиш учун видеолавларга олаётганимиздан уялиб кетдим. Шу муштдеккина бошига ҳаётнинг ачиқ-чучуқларини босиб ўтаётган, онасига елкадош бўлиб, 11 ойлик синглисига асосий қаровчи бўлган қизгинанинг ориятидан уялдим. Нахотки уларга шу пайтгача бошпа-на ажратилган қўн қилмаётган мутасаддилик уялмайган бўлса?!

Ирина Варламова SOS Ўзбекистон болалар маҳаллалари уюшмаси Самарқанд филиалида катта бўлди. Онаси 2005 йилда вафот этган, отасини эса умуман кўрмаган. Улғайгач, Меҳрибонлик уйида тарбия топган йигит билан турмуш қуришади. Иккаласи Самарқанд шаҳридаги Илмобод маҳалласида жойлашган ижтимоий уйлардан бирида яшайди, фарзандли бўлишади.

- 2019 йил ижтимоий уйда яшаётган бир гуруҳ ёшлар билан ҳоким учрашганим, - дейди Ирина биз билан сўзлашганда. - Ушанда бошланғич тўлови тўлаб берилиши шarti билан бизларга кредитга уй, оила бошқоқларига иш таклиф этилди. Уйнинг ойлик кредит тўлови 4 миллион сўмини ташкил этарди. Аfsуски, ваъда берилган юқори ҳақли иш топилмади, шунда ҳам ҳаракат қилдик. Аммо иложи бўлмади,

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda Zarmed klinikasi qoshida meditsina sohasini klasterlashtirish g'oyasining amaliy natijasi sifatida Zarmed universiteti tashkil etildi. Buxoro va Samarqand shaharlarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beruvchi binolar qad ko'tardi. 2024-yilda Buxoroda 1770 o'ringa mo'ljallangan qo'shimcha yangi o'quv binosi ishga tushirildi. Zamonaviy qulayliklarga ega talabalar turarjoyi qurildi.

Yuqori did bilan qurilgan binolar zamonaviy talabalar asosida jihozlandi, o'quv laboratoriya xonalari, kutubxonalar tashkil etildi. Kelgusida universitet moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash bilan bog'liq keng ko'lami ishlar rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda Zarmed universiteti mamlakatimiz hayotidagi bir qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Bu yerda o'n mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Demak, yaqinda tashkil etilgan ushbu dargoh shuncha yoshlarimizning bilim olishiga, yurtimizga munosib oliy ma'lumoli mutaxassis bo'lib shakllanishiga real imkoniyat yaratib berdi. Yaqin yillarda talabalar sonini 17 ming nafarga yetkazish mo'ljallangan. Hozirda universitetda 478 nafar yuqori malakali professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 113 nafari jamiyatimiz uchun o'ta foydali ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmoqda.

Zarmedda boshlangan klasterlashtirish g'oyasining hayotga tatbiq etish jarayonlari bosqichma-bosqich izchil davom etmoqda. Hozir Samarqand shahrida 300 o'ringa mo'ljallangan Zarmed maktabida qurilish ishlari yakunlanib, ishga tushirish arafasida turibdi. Keyingi bosqichda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda ish o'rnlari tanqisligi sharoitida ushbu jarayonlarning naqadar ahamiyatli ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

Kelajakda Zarmedda xorijlik yoshlarni o'qitishni yo'lga qo'yish, chet ellik olimlar hamkorligida yuqori salohiyatli ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish va boshqa bir qator muhim tadbirlar ko'zda tutilgan. Bu Zarmed yaqin istiqbolida O'zbekistonda ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Ta'lim xizmatlari eksportining aholi bandligini ta'minlash nuqtai nazaridan ustunlik jihati shundaki, iste'molchiga xizmat ko'rsatish jarayonida nafaqat ta'lim sohasida, balki u bilan aloqador bo'lgan turdosh tarmoqlarda ham ko'plab yangi ish o'rnlari paydo bo'ladi, ya'ni multiplikativ samara yuzaga keladi.



ZARMED universiteti: sifatli ta'lim sari dadil qadamlar

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xalqaqit berayotgan, uning yo'lida g'ov bo'layotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish mazkur sohada taraqqiyotga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda oliy ta'lim tizimida xususiy sektorning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim muammolarni keng auditoriya muhokamasiga chiqarishni lozim, deb topdik.

Bizningcha, xususiy oliy ta'limni rivojlantirishda eng jiddiy muammo o'qishga qabul qilingan yoshlar bilim darajasining pastligi. Ma'lumki, deyarli barcha xususiy universitetlarga talabalar test imtihonlarisiz, shartnoma asosida qabul qilinadi. Xususiy oliy ta'lim muassasalari talabalar kontingentining deyarli hammasi davlat oliy ta'lim yurtlariga kirish test imtihonlarini topshirib, bilim darajasi pastligi tufayli sinovdan o'tmay qolgan abituriyentlar hisobidan shakllantiriladi. Ushbu toifadagi abituriyentlar bilim saviyasi pastligining ikkita asosiy sababi bo'lishi mumkin.

Birinchidan, talablikka da'vogarlik qilayotgan shaxsning aqliy qobiliyati juda past, zaif rivojlangan va buning natijasida fanni talab darajasida o'zlashtirish imkoniyatlari chegaralangan.

Ikkinchidan, u o'qishni yoqtirmaydigan, tabiatan o'ta ketgan dangasa, ishyoqmas, loqayd va beparvo shaxs. Demak, ta'lim jarayonining boshlanish davrida, ya'ni o'qishga start berilgan pallada, xususiy universitet talabalarining bilim saviyasi davlat oliy ta'lim yurtlariga talabalarining bilim saviyasiga nisbatan sezilarli darajada past bo'lgan. Ayni paytda oliy ta'lim yurtining mulkiy shaklidan qat'i nazar, bitiruvchilarga diplom taqdim etish shartlarida talab bir xil. Tabiiyki, ushbu holat xususiy universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilari jamoasiga juda katta mas'uliyat va yechilishi shart bo'lgan jiddiy mu-

ammolar tug'diradi. Ushbu toifadagi oliy ta'lim yurtlari raqobat kurashida g'oliblikka erishishi, davlat oliy ta'lim yurtlarini yengib chiqishi uchun nafaqat bitiruvchilarning ta'lim sifatini ta'minlash borasida ularga tenglashishi, balki ularga nisbatan yuqoriroq bilim berganligini amalda isbotlashi lozim. Bu nazariy jihatdan ifodalashga oson, lekin amaliy jihatdan erishish juda mushkul bo'lgan masala.

Amaliy tajriba va kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, bugungi kunda xususiy ta'lim muassasalarining aksariyati ushbu dolzarb muammoni yechishda asosiy e'tiborni o'qituvchi va talabalar bilim sifatiga talabni va nazoratni kuchaytirishga qaratadi. Lekin faqat ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish, talabalar bilim sifatiga talabni kuchaytirishning o'zi bilan bu muammoni hal qilishning iloji yo'q. Bizningcha, xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning ayrim yashirin imkoniyatlari mavjud va ulardan unumli foydalanish lozim, deb o'ylaymiz.

Bugungi kunda universitet jamoasi uning ta'sischi, tajribali tadbirkor D. Shukurullayev bilan birgalikda juda katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, ta'lim sifatini tubdan oshirishga bel bog'lagan. Ma'ruza va amaliy darslar sifatini nazorat qilish, talabalar bilimini obyektiv baholash tizimini joriy etish, professor-o'qituvchilar va talabalar samarali mehnatini moddiy rag'batlantirish va yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun jazolash mexanizmi ishlab chiqilgan. Bu borada xorijiy ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish, fanlar bo'yicha ilmiy to'garaklar tashkil etish bo'yicha va boshqa muhim sohalarida istiqbolli strategiyalar amalga oshirilmoqda. Umumlashtirgan holda bular quyidagilardan iborat:

Birinchisi – talabalarining ota-onalari bilan

uzviy aloqa o'rnatish. Ushbu strategiya ota-onalarning o'z farzandlari kelajagiga, taqdiriga befarq emasliklaridan kelib chiqqan holda, ularni yuzaga kelgan noxush ahvoldan o'z vaqtida xabardor qilish imkonini beradi.

O'rta maktab yoki kollejda o'qishga bo'yin egmagan, bilim saviyasi past yoshlar uchun universitetga osongina kirish – bu katta baxt, omad. Oson qo'lga kiritilgan imkoniyat esa uni beparvolik, mas'uliyatsizlik, beburdlikka yetaklaydi. Yillar davomida o'rta maktabda, bepul o'qish jarayonida davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmagan va jiddiy xatoga yo'l qo'ygan farzand endi loqaq ota-onasi tomonidan yaratilgan ikkinchi imkoniyatdan foydalanishi shart. Ota-onalar erkatoz farzandlarining kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda, ular bilan yonma-yon turib mehnat qilishlari, jon kuydirishlari kerak. Ularga bu vaziyatni obdan tushuntirishni Zarmed universitet mutasaddilari o'z zimmasiga oldi va ta'lim sifatini oshirish muammosini hal etishda bundan unumli foydalanmoqda.

Ikkinchisi – asosiy fanlardan ilmiy to'garaklarni tashkil etish. Ushbu strategiya talabalarga chuqur bilim egallash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy to'garaklar talabalar bilim sifatini oshirish va ularning bo'sh vaqtlarini foydali ishga yo'naltirish uchun real imkoniyat yaratadi.

Uchinchisi – universitetda katta amaliy tajriba ega bo'lgan, yuqori salohiyatli, iste'dodli professor-o'qituvchilar jamoasini shakllantirish siyosati. Ushbu maqsadga universitetga ishga kelgan professor-o'qituvchilarga belgilanadigan oylik stavkalarini davlat oliy ta'lim yurtlarinikidan 20 foiz yuqori, ilmiy salohiyati kuchli ayrim o'qituvchilarga esa undan ham baland.

To'rtinchisi – professor-o'qituvchilar hamda talaba-o'quvchilarning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi moddiy rag'bat va jazo choralarini ko'lash. Insonda hamisha, u qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, faqat vaziyat taqozo etgandagina ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan katta yashirin ichki salohiyat mavjud bo'ladi. Bizningcha, professor-o'qituvchilarda ham, talaba-o'quvchilarda ham mujassam bo'lgan ana shu ichki yashirin salohiyatni to'la ro'yobga chiqarish ta'lim sifatini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bu salohiyatni ro'yobga chiqarishga turki beruvchi omil – bu moddiy rag'bat yoki aksincha, moddiy jazo choralari.

Beshinchisi – korxonalar va tashkilotlar bilan uzviy hamkorlik o'rnatish. Ushbu strategiya talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotdagi mavjud muammolar bilan samarali bog'lash imkonini beradi. Yirik davlat tashkilotlarida, xususiy korxonalarda Zarmed universitetining auditoriyalari tashkil etilgan va mutaxassislar dars mashg'ulotlariga jalb qilish rejasi ishlab

chiqilgan.

Oltinchisi – ta'lim sohasida, ilmiy tadqiqotlarda universitetning xorijiy davlat ta'lim muassasalari yetakchi olimlari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish. Ushbu strategiyaning amalda qo'llanilishi juda qisqa fursatda o'zining real natijalarini ko'rsata boshladi. Zarmed universitetida har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Masalan, tibbiyot ta'lim yo'nalishi bo'yicha Turkiyaning Sog'liq bilimlari universiteti, Hindistonning Appolo Universiteti, Rossiya Federatsiyasining V.A.Almazov nomidagi milliy tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazi, Belarus Respublikasining Belarus davlat tibbiyot universiteti bilan qo'shma ta'lim dasturini tashkil etish bo'yicha memorandum imzolandi. Shuningdek, iqtisodiyot, arxitektura qurilish va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida Janubiy Koreyaning Joongbu Universiteti, Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat universiteti va Moskva davlat qurilish universitetlari bilan qo'shma diplom dasturlari, talabalar almashuvi yo'lga qo'yildi. Bunday qo'shma ta'lim dasturlari Zarmed universitetini jahon ta'lim makoniga to'liq integratsiya qilish, ta'lim dasturlarini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish, xalqaro akademik va ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Zarmed universiteti ta'lim sifatini xalqaro darajaga chiqarish va qo'shma ta'lim dasturlari talabalariga qulayliklar yaratish maqsadida universitet qoshida "Zarmed to'lar" tillarni o'qitish markazi faoliyatini yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda Zarmed universitetida ta'lim sifatini tubdan oshirish borasidagi ulug' maqsadlar yo'lida izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar dastlabki amaliy natijalarini bermoqda. 2024-2025-o'quv yilida Zarmed universiteti Buxoro kampusi davolash ishi ta'lim yo'nalishining 4-bosqich talabasi Diyorbek Turunov Islom Karimov nomli, 3-bosqich talabasi Shalola Yo'ldosheva Alisher Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibi bo'lishdi. Davolash ishi ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabasi G'iyosjon Abduq'aniyev muay-tay sport turi bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lib, jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Tabiiyki, bular ta'lim sifatini oshirish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan izchil harakatlarning birinchi kurtaklari.

Ishonamizki, Zarmed universiteti kelajakda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari reytingida peshqadamlikka da'vogarlik qiladigan, nufuzli va obro'li oliy ta'lim yurtlaridan biriga aylanadi.

Murod MUHAMMADOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
Bahodir MARDONOV,
Zarmed universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
dotsent.

Xizmatlar litsenziyalangan.



"TILNI O'QITISH, O'RGANISH VA BAHOLASHDAGI INNOVATSIYALAR"

Joriy yil 9-10-aprel kunlari Samarqand davlat chet tillar institutida ana shu mavzuda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etilmoqda.

Bugun o'qitish sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangi pedagogik yondashuvlar yordamida xorijiy tillarni o'rgatish yanada takomillashyapti. Ushbu innovatsiyalar tilni o'rganish jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Anjumandan ko'zlangan maqsad – tilni o'rganish, o'qitish va baholash jarayonida qo'llanilayotgan yangi texnologiyalar va metodologiyalarni tahlil qilish hamda ularning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlashdan iborat.

Chunki til o'rganish jarayoni va tilni o'qitish metodlari har doim yangi ilmiy-tadqiqotlar hamda texnologiyalar bilan yangilanib boradi. Bunda innovatsion yondashuvlar, tilni o'zlashtirish usullari va o'qitish metodologiyalari o'quvchilarni samarali o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'qitishning zamonaviy inno-

vatsiyalarini, til qobiliyatlarini baholash tizimlaridagi rivojlanishlarni, tilshunoslikda o'tkazilayotgan tadqiqotlar va rivojlanish yo'nalishlarini, bu yo'ldagi diqqat e'tibori ayni muammolar yechimini muhokama qilish bilan ahamiyatli.

Xalqaro anjumanda Amerika, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston, Ispaniya kabi mamlakatlar olimlari, mutaxassislar ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Tadbirning asosiy shu'ba yig'ilishida til o'rganishda innovatsion yondashuvlar va o'zlashtirish usullari, til o'qitish usullari, pedagogika innovatsiyalar, til qobiliyatlarini baholash va tahlil qilish, tilshunoslikdagi tadqiqotlarga bag'ishlangan dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar tinglanadi.

G.OBRUYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili kafedrasini mudiri, professor.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Usmanov Axmedga (2024-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Mavlanova Muxabbat Xamidovnaga (2024-yil 22-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ibragimov G'aniaga (2006-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kadirova Davlat Bakiyevnaga (2024-yil 13-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rning Toshemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Abduraximova Karamatga (2016-yil 19-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Doniyarov Xakimga (2018-yil 15-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Bar-

no Jo'raqulovna notarial idorasida marhum G'afarov Qurbonboyga (2024-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Raxmonov Abdukarim Rafikovichga (2024-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Urazqulova Ambarga (2021-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rning Toshemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Norkulov Xikmatullova (2024-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilloevna notarial idorasida marhum Razikova Shirin Sadikovnaga (2024-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Nishonova Umida Ismatilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Suyarova Umida Anvarovnaga (2022-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Vetrinseva Igor Aleksandrovichga

(2024-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltaevich notarial idorasida marhum Xabibov Seraliga (2020-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Norqulov Alisher Toshboltaevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Isxakova Naziraga (2020-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Cherkasov Viktor Mixaylovichga (2008-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ibragimova Lyusya Arratovnaga (2020-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Vorfolomeeva Valentina Alekseyevnaga (2016-yil 29-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Batirova Tuygunoy Mardiyevnaga (2024-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasida marhum Atakulova Saodat Raximovnaga (2024-yil 18-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xolboyeva Hafiza Shaydullayevnaga (2019-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djaliyeva Saibaga (2017-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Salimov Mansurga (2024-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Odilov Zokirjon Temurovich va sotib oluvchi Abdullaev Azim Aslamovichlar o'rtasida Samarqand shahri Usta Umar Jo'raqulov ko'chasi hududida joylashgan savdo do'koni binosining qurilish tagidagi maydoni 90,82 m.kv., foydali maydoni 80,05 m.kv. ni tashkil etgan 0001 literdagi 1 xonadan iborat qismi uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligi 2016-yil 13-yanvarda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 003-sonli kelishuv bayonnomasiga asosan tuzilgan oldi-soldi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Urgut tumanidagi "QURBONOV BERDIKUL USMONOVICH" yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30511676130025) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Kichik xona isiriq hidiga to'lgan, vassajuft shift tagida siyrak tutun suzib yuribdi. Derazadan qiya bo'lib tushgan nur pechka yonida yotgan Yo'ldi akingning yarim gvdasini yoritgan. U og'ir qovoqlarini zo'rg'a ochib, oynadan ichkariga yopirilib kirgan yog'duni ko'rdi-yu, boychechak topib olgan boladay sevindi. Derazadan qo'shning oppoq qor bosgan tomi ko'rinib turar, ustidan o'tgan elektr simlarida maynalar chug'urlashib, g'ujg'on o'ynardi. Goh-gohi bu hushtakboz qushlar pag'a-pag'a tutun chiqayotgan mo'ri atrofida uymalashib qolar, shunda ularning ovozi pechkaning tirsagiga shovqin bo'lib, oqib kelardi. Garchi fevral bo'lsa ham bahor nafasi sezilar, kunlar ancha uzayib qolgandi.



(Hikoya)

Vaqt o'tgani sayin hamma narsa o'zgarar, faqat Yo'ldi akagina o'zgarmas edi. U mana, yigirma kundirki, to'shakda mixlanib yotardi. Qoruvli gvdasi allaqachon to'shakka singib ketgan, shuning uchun ham bir tuyur bo'lib ko'rinadi. Uni avvaldan bilganlar bu yotishini ko'rishsa, yoqa ushlab hech gap emas. Hatto xotini uni cho'pday ozib ketayotganidan hayron edi. Anchadan beri ustara tegmagan soqol-mo'yilabi vujudini uzluksiz va ayovsiz g'ijimlayotgan og'riq sabab goh burishib, goh tirishayotgan, aksar pallalarda qo'rqinchli tarzda bujmayib ketayotgan yuzini biroz qat'iyatli ko'rsatardi. Hech bir shifokor, hatto eng so'nggi rusumdagi apparatlar ham aniqlay olmagan xastalik kuchli xuruj qilganida, agar yonida odam bo'lmasa, og'ir uh tortib qo'yar, mabodo birov, hatto xotini bo'lsa ham alam-u iztirob bilan dardini ichiga yutardi. U xotini o'ldida ingrashdan qo'rqardi. Negaki Munavvar checha tinmay uning qilmishlarini betiga solar, barchasi birovlariga yetkazgan jabr-sitami sabab sodir bo'layotganini to'tiqushday ta'kidlardir. Xotini jim bo'lsa bas, buyam bir shifo, harnechuk qulog'i tinchiydi. Kimningdir shang'illashi bemor uchun ajalning tanglayini oshkora taqillatishi bilan barobar. Yagona suyanchig'ingdan yuraging bezillasa, dardingni kimga aytasan?

Tashqarida olashaqshaqning shaqillagan ovozi eshitildi.

- Hak! Hoy, yer yutgurlar, hak! - ularni haydadi Munavvar checha.

Yo'ldi akani tinmay o'y bosardi. Kundan kunga ahvoli og'irlashib bormoqda, chilladan chiqqan bo'lsa ham, qishdan chiqmaydigan. Dard oyog'idan chalgan, ba'zan boshini tutolmaydi, ba'zan tili tutiladi. Nahotki so'nggi kun yaqin! Ellik ikkiga kirdi. Oltmishga kirsam, savdo-sotiqni tashlayman, namoz o'qishni o'rganib, choyxonaga emas, machitga boraman, deb niyat qilgandi. O'sha paytda qanchalar nodon bo'lgan ekan-a, oltmish qayoqda, ertaga nima bo'lishini bilmaysan. Rosti gap, pulga o'chligi sabab harom-harishdan hazar qilmadi, iymonu vijdonni oddiy chaqadan past ko'rdi. Ko'ziga dunyo tor ko'ringach, esi kirdi. Ammo endi kech emasmi?

- Uy issiqmi? - otashkurak ko'tarib kirdi xotini. - Sovuq bo'lsa, o'tin qalay.

Yo'ldi aka tilini zo'rg'a aylantirdi.

- Q-qala...

- Tetikmisiz? Bekor yotgandan ko'ra o'tgan umringizni sarhisob qiling. Birovda qarzingiz qolib ketmasin tag'in.

Ko'ziga xotini yalmog'izdek ko'rinib ketdi. Lekin u haq. Ha, u haq. Shunday haqki, savdogar biron-bir bahona bilan o'zini oqlayolmaydi.

- Farhodni chaqir.

- Uydama. Gapingiz bo'lsa, menga aytavering.

- Chaqir. To-op...

Yakkayu-yagona o'g'li qarshisiga kelganida unga jovdirab boqdi.

- Sandiqda ikki million pul bor, shuni opkel. O'g'li ikki taxlam o'n mingtalikni sandiqdan oldi.

- Kasalxonaga boramizmi, ota?

- Yo'q. Menimcha umrim poyoniga yetyapti. Jildirsoyda Begoyim ismli bir ayol yashaydi, bu pulni o'sha ayolga eltib berasan.

- Nimaga?

- Besh yil oldan undan to'rt qop mayiz olgandim.

Nasiyaga. Pulni uch kun ichida to'g'rilab bermoqchiydim. Nima bo'ldi-yu, berolmadim. Qishlog'iga har borganimda ayol pulini so'rdi. Rostini aytсам, uni erta-inda deb aldaridim. Eri yo'q edi. Keyinchalik u pulini so'ramay qo'ydi. Umidi so'ndi, shekilli. Tayin oborib ber. Uzar so'ra nomimdan. Yotishimni qara. Unga ne ahvolda yotganimni aytaver. Bir amallab rozi qil.

- Meni kechirsin.

- Besh yildan beri...

- Yaramni tirnama! Hoziroq yo'lga tush. Vaqt g'ani-

mat. Enangga hech nima demay chiqib ket. O'sha ayol rozi bo'lishi shart. Sen uning roziligini opkel, shunda tinchiyman.

- Xo'p, ota. Faqat shumi?

- Shu. Ayolning uyi maktabning orqa tomonida.

Jigarrang tusli darvoza. Balki rangi o'zgarandir. Otasi-ning ismi Tojiboy. O'ziniki Begoyim.

O'g'li chiqib ketgach, chap biqini tortishib qoldi. Go'yo ajal farishtasi biqiniga chang solgandek ingrab yubordi.

- Farhodni qayerga yubordingiz? - uyga xotini kirib keldi. - Moshin top, do'xtirga obor dedingizmi? Do'xtirma-do'xtir chopishingizdan naf ko'rmayapman. Pullaringizni teshik-kovakda saqlamay, beva-bechoralarga ehson qiling.

U indamay, ko'zini yumib oldi...

Farhod jo'rasining mashinasida ayolning qishlog'iga kirib borganida izg'irin quyosh nurini sindirgan edi. Ayolning uyini adashmay topib borishdi. Uyda erkak kishi anchadan beri yo'qligi biliniy turardi. Ko'cha tomonda qad rostlagan devor zanglagan darvozagacha yerda sochilib, ag'anab yotardi. Ayovnsiz uyning tomi loysu-voq bo'lib, deraza oynalari o'rniga karton qoqilgan edi. Na og'il, na o'tinxona ko'zga tashlanadi, chap tomonda tandir og'zini katta ochib turardi.

Ko'rimsiz va g'arib manzarani ko'rib, Farhodning yuragi uvishib ketdi. Lekin bir tomondan xursand bo'ldi, ayol pulga muhtoj, undan rozilik olish qiyin kechmaydi.

- Hovli tog'! Hoy, hovli tog'!

Ichkariga kirmay, ariq bo'yidan ovoz berdi. Omonat eshik ochilib, tashqariga chamasi o'n yettiga kirgan qiz chiqdi.

- Otangni aytib yubor, - dedi Farhod ayolning eri yo'qligini otasi aytgan bo'lsa ham, buni yodidan ko'tarib.

- Uning otasi yo'q, - qo'shni hovlidan bir ayol chiqib keldi.

- Assalomu alaykum!

- Vaalajakum!

- Begoyim ismli ayol kerak edi. Tojiboy akingning qizi. Shu ayolni izlab keldim.

- Unda nima ishing bor?

Qiz yaqin kelib, kesak uyumi yonida to'xtadi. Farhod go'yo pul olib kelib, qahrmonlik qilayotganday nega kelganini baralla ovoza aytdi.

- Otanning ahvoli og'ir. Nima desam ekan, o'lim to'shagida yotibdi. Siz qo'shni bo'lasingizmi?

- Ha... Afsuski, otang kech qolibdi. Begoyim vafot etganiga ikki yil bo'lyapti. Bolalarini og'aynilari opketgan, bu mening qizim. Uyni menga sotishgan. Begoyim otang haqida gapirgandi. O'sha yili pulsizlikdan rosa qiynaldi, bechora. Qahratonlik shamollab qoldi, so'ng vafot etdi. Otang o'z vaqtida pulni berganida oilasi to'zg'ib, o'zi o'lib ketmasdi. Pulni kimga berasan endi? Men aytgan gaplarni otangga yetkaz.

Yigit qaltirab-titragan ko'yi mashina tomon yurdi. U mashinaga o'tirarkan, puchaygan uyga so'nggi bor nazar tashladi. Eti jimirlab ketdi. Garchi farzand degan oti bo'lsa ham qo'shni ayoldan eshitganlarini otasiga miridan-sirigacha aytib beradi. Shuni ko'ngliga tugdi. Bu g'amning haqiqatni yurakda saqlab bo'lmaydi.

Devor qoldig'i oldida tik turgan qiz mashina ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan bo'shliqqa o'yanchan ko'z tikib o'tirgan ayolning yoniga keldi. Ayol yig'lar, achchiq ko'z yoshlari yonog'ini yuvaridi.

- Nimaga yolg'on gapirdingiz, oyi? - dedi qiz titragan ovoza. - Nimaga men qo'shnsiman dedingiz, nimaga o'zingizni o'ldiga chiqardingiz? Pulga hozir ham muhtojmiz-ku, nimaga bunday yo'l tutdingiz?

Qiz onasining yelkasiga boshini qo'yib, yig'lab yubordi. Begoyim, ha, o'sha Begoyim, savdogar bir paytlar zor qaqsatgan mushfiq ayol uni bag'riga bosdi.

- Savollaringga vaqti kelsa, javob topasan, qizim, hozir aqling yetmaydi.

Shoniyo MELIBOYEV.

YOBONDAGI ATIRGUL

(Gulhayo Anorova ijodiga chizgilar)

She'riyat, ko'ngil mahzanining lojuvard ufqida yurak qoni ila tuyg'ularni osmon toqiga yulduz misol tizib qo'ymoq, so'ng uning yog'du taratib, necha ko'ngillarni zavqlantirib, qablarda ajib hislarni jo'shtirmoq va shu tuyg'udan ko'ngil huzurlanmoq istagidagi cho'g'ning ruhiy alanga olmog'idir. She'riyat azob va iztirob, quvonch va shodlik, visol va hijronning ruhiyat qadahidan to'kilib, so'zlarning misralarga aylangan hayqirig'idir. Shu hayqiriqlardan musiqiy ohang ila satrma-satr ko'ngilga ko'chmog'i, san'at asari yaralmog'idir.



da o'sha dunyoga tushib qolishingiz yoki "Kuz o'yli" she'ridagi:

Ota, hovuchingdan to'kilgan xirmon,
Kaptar tumshug'ida tovlangan yoqut...

...Ota, sarg'aymagay yaproq da'fatan...
- deya ko'ngil bayozini mohirona tasvirlagani va yana bir she'rida:

Ruh kapalak,
buncha sokinsan?

Osmon yonib ketguday hozir.
Ildizsiz,
Muallaq bulutni
suyab qolarmikan nimadir?

- deya ruhning kapalak misol ko'rinishi, shu ko'rinishda bo'lsa ham (biz bilimizki kapalakning umri juda qisqa) darbadar ruhning erk haqidagi go'zal va abadiy qo'shig'ini tarannum etayotgani haqida to'lib yozadi, yozganda ham qalb tortlarida nimanidir chirsillatib, lovullatib yuborgudek bo'lib yozadi.

Men Gulhayoni yobondagi atirgulga qiyoslagim keladi. Alvon atirgulga... Kimsasiz kengliklarni o'z jilosi bilan, yurak tafti bilan yashnatishga chog'langan jasur, o'ktam ovoz va maqsad sohibiga... Yosh iste'dodli shoira Gulhayo Anorova o'zbek adabiyoti va she'riyat ravnagiga o'z ijodi bilan munosib hissa qo'shadi degan umiddaman. Bu yo'lda unga Allohdan faqat omda va omonliklar tilayman!

Jumagul SUVONOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



Yoxud davraning to'ri kinniki?

«Aka, kelishingizda go'sht olsangiz, iftorlikka ovqat qilardim. Uch kundani beri dadam bilan ayam tuzukroq narsa yegani yo'q».

Taksida telefonda gaplashayotgan yo'lovchiga ayol kishi shunday dedi. Yonma-yon o'tirganim uchun ovoz menga aniq eshitildi. Keyin yo'lovchi javob qaytardi.

- Men ishdan kech chiqaman, pulim ham kam, amallab turinglar. Yaqinda oylik tushadi, hamma kerakli narsalarni olib beraman.

Rosti, yonimdag'i kishining puli yo'q ekan-da, ro'zador ota-onasiga ul-bul ham o'lmayapti deb afsuslandim. Biroq telefon o'chishi bilan boshqa birovga qilingan qo'ng'iroqdan keyin fikrim butunlay o'zgardi.

- Assalomu alaykum! Aka yaxshimisiz, dam olish yaxshi bo'lyaptimi?

- ... (Javob qaytarildi).

- Bugun boshliqni tug'ilgan kuni ekan. Shunga iftorlik meni hisobimdan bo'lyapti. Sovg'amiz ham bor. Ta'tildasiz, eshitingizmi-yo'qmi

deb xabar qilayapman. Bugun iftorlikka hamkasblar bilan doimiy boradigan restoranimizga kelasiz-da...

Ochig'i, holatni kuzatib, gapirmasam bo'lmadi.

- Aka, bugun uyda iftor bormi yoki oilaviy biror joyga boryapsizlarmi? - deb so'radim ataylab.

- Bugun boshliqning tug'ilgan kuni. Hamkasblar bilan o'tiramiz, shu bahona Ramazon oyi bir iftorlik qilib beray, - deya kekkaydi haligi kishi.

Hozirgina ota-onasiga "Go'sht olishga pulim yo'q" degan odamdan bu gaplarni eshitish juda og'ir botdi. Nahotki, odamlar shunchalik tubanlashib ketyapti.

Menimcha keyingi paytda qilayotgan amallarimizning aksariyati savob uchun emas, balki o'z nafsimizni qondirish va dabdababozlik uchun bo'lyapti. Aksincha bo'lganda, davralarning to'rida dunyoning oshu go'shtini yeb yurgan "kattalar" yoki do'st-birodarlar emas, ota-onamiz va muhtoj insonlar bo'lar edi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

APREL OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-APREL

Boturxon VALIXO'JAYEV

(1932-2005). Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

3-APREL

Mamarasul BOBOYEV

(1911-1969) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan, shoir.

12-APREL

MUROD Muhammad Do'st

(1937-2015) Paxtachai tumanida tug'ilgan. Mehnat qahramoni.

13-APREL

Ahtam O'ROLOV

(1949-1969) Nurobod tumanida tug'ilgan. Arxitektura fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

16-APREL

Mahkam OBLOQULOV

(1920-1992) Urgut shahrida tug'ilgan. Kulol. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Vasily LARTSEV

(1925-1989) Oltoy o'lkasida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

Aziz YO'LDOSEV

(1952-2000) Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 513 nusxada chop etildi. Buyurtma 156. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 2-aprel, chorshanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda